



# ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI ARAŞTIRMALARI DERGİSİ

Uluslararası Türk Dünyası Araştırmaları Dergisi

*International Journal of Turkish World Studies*

e-ISSN: 2651-5180

Yıl: 2025 Cilt-Sayı: 8(2) ss: 139-146

Year: 2024 Vol-Issue: 8(2) pp: 139-146

Geliş Tarihi / Received: 14.01.2025

Kabul Tarihi / Accepted: 17.04.2025

Yayın Tarihi / Published: 30.04.2025

Araştırma Makalesi

Research Article

DOI:10.59182/tudad.1619886

Jabborov, X. (2025). Qashqadaryo shevalarining o'rganilish tarixidan. *Uluslararası Türk Dünyası Araştırmaları Dergisi*, 8(2), 139-146.

## QASHQADARYO SHEVALARINING O'RGANILISH TARIXIDAN

Xojamurod JABBOROV\*

**Annotation:** Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасининг Қашқадарё вилояти халқ шевалар лексикасининг ўрганилиш тарихи түғрисида илмий манбаларга таянилган ҳолда маълумотлар берилган. Қашқадарё халқ шевалар лексикасини ўрганиш бўйича тадқиқотчиларнинг бу вилоят шевалари устида олиб борган илмий тадқиқотлари, улар томонидан амалга оширилган ишларнинг мазмун ва моҳияти, илмий ва амалий аҳамияти, тадқиқотлар доирасида яратилган илова лугатлар, уларнинг нашр этилган ва этилмаганлари, бу соҳада келажакда қилинажак ишлар, яъни муаммо ва ечимлар хусусида фикр-мулоҳазалар юритилган. Жумладан, мақолада тадқиқотчилар Bolta Жўраев, Азиз Жўраев, Аъшам Шерматов, Тўра Нафасов, К. Усмонов, Нуркул Мирзаев, Хўжамурод Жабборов, Наргиза Шоимова каби шевашуносларнинг Қашқадарё вилояти ҳудудлари шеваларини халқ сўзлашув нутқидан ёзib олганлиги ва ёзма ёдгорликлардаги сўзлар билан тарихан қиёслаганлиги, уларнинг фонетик, морфологик хусусиятларининг ўрганилиши, тараққиёт манбалари ва этинологик жиҳатдан қандай ўрганилганлиги ёритилган. Мавжуд тадқиқотлар ва уларга илова қилинган турли миқдордаги шеваларни жамлаган катта - кичик лугатлар асосида йирик ҳажмли Қашқадарё ўзбек халқ шевалар лугатини яратиш долзарб вазифалардан бири эканлиги асосланган.

**Kalit So'zlar:** Qashqadaryo, sheva, shewalar leksikasi, adabiy til

## THE HISTORY OF STUDYING KASHKADARYA DIALECTS

**Abstract:** Abstract: The article presents information based on scientific sources on the history of studying the vocabulary of folk dialects of the Kashkadarya region of the Republic of Uzbekistan. Scientific research conducted by researchers studying the vocabulary of folk dialects of Kashkadarya, on the dialects of this region, the content and essence of their work, the scientific and practical significance of additional dictionaries created within the framework of the study, whether they were published or not, as well as other studies that will be carried out in this direction, i.e. Problems and solutions. The article tells how dialectologists, in particular, researchers Bolta Juraev, Aziz Juraev, Asham Shermatov, Tura Nafasov, K. Usmonov, Nurkul Mirzaev, Hokamurod Jabborov, Nargiza Shoimova, recorded the dialects of the Kashkadarya region from colloquial speech and compared them with words in historical written monuments, studied their phonetic and morphological features, studied the sources of their development and etymology. It is noted that one of the urgent tasks is to create a comprehensive "Dictionary of Uzbek Folk Dialects of the Kashkadarya Region" based on existing research and large and small dictionaries covering various dialects.

**Keywords:** Kashkadarya, dialect, dialect dictionary, literary language

Mustaqillikning so'nggi besh yilligida O'zbekistonda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida bir qator Farmonlar qabul qilindi.

\* Prof. Dr., Karşı Devlet Üniversitesi, xojamurodjabborov54@gmail.com

ORCID: 0009-0002-6363-971X

Bunday Farmonlarning ijrosini ta'minlashda keng ko'lamli ishlar amalda bajarilmoqda. Respublikamizda "SHevashunoslik markazi"ning tashkil topishi va bugungi kunda filologiya fandari doktorlari, professorlar Samixon Ashurbayev, Muradqosim Abdiyev, Nigora Murodovalarninig faol harakati bilan O'zbekistonning hududlararo shevalarni o'rganilishi, shevashunoslik bo'yicha xalqaro anjumanlar uyuştirilishi buning yaqqol dalilidir.

Ayniqsa, bugungi kunda adabiy tilimizning manbai va xazinasi bo'lgan shevalar leksikasini toplash, o'rganish va ularni adabiy tilimiz lug'at boyligiga kiritish bo'yicha muayyan ishlar olib borilmoqda. Har qanday til shevalari, jumladan, o'zbek shevalari leksikasini leksikografik tadqiqotlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Respublikamizda har bir viloyatlar bo'yicha mukammal va katta hajmli dialektal lug'atlar yaratilmas ekan, shevalar leksikasi bo'yicha nazari va amaliy jihatdan ilmiy tadqiqotlar ham yuzaga kelmaydi.

Qashqadaryo shevalarining o'rganilish tarixi, leksikografik yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar A. Ishayevning *O'zbek dialektal leksikografiyasi* (1990) asarining tadqiqot obekti sifatida o'rganilgan. Ushbu tadqiqot muallifi respublikamiz, xususan, Qashqadaryo viloyati o'zbek shevalari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar, dialektal lug'atchilik materiallari, tadqiqotlarga ilova tarzida berilgan lug'atlarning turlari, lug'atlardagi yutuq va kamchiliklarni ro'yrost ko'rsatib va bu sohadagi xato va nuqsonlarni bartaraf etish uchun tavsiyalar bergan. Ammo bu asardan boshqa Qashqadaryo shevalarini o'rgangan tadqiqotchilarining shevashunoslik, dialektal lug'atlar tuzish bo'yicha biron-bir tadqiqot yaratilmagan. Demak, Qashqadaryo shevalarining o'rgangan olimlarning tadqiqotlarini jiddiy o'rganish va bu soha shevaviy merosini tadqiq etish endigina boshlanmoqda.

## **1. Mavzuga Doir Adabiyotlari Tahlili**

Maqolada A. Ishayevning *O'zbek dialektal leksikografiyasi* (1990) asaridagi nazariy va amaliy fikrlarga tayanilib ish ko'rildi. Muallifning mazkur asarida shevaviy lug'atchilikning barcha amaliy masalalari, shevalardan so'z yozib olish, ma'nolarini aniq izohlash, lug'at tuzish, lug'atga so'z tanlash va tartiblashtirish, lug'at da shevaga xos so'zlarning hajmi va ma'nolari kabi dolzarb masalalar tadqiq etilgan (Nafasov ve Nosirov, 1993, s. 69). O'zbek tilshunosligida Qashqadaryo xalq shevalarini o'rgangan tadqiqotchilarining ishlari bo'yicha A. Ishayevning *O'zbek dialektal leksikografiyasi* nomli asarini inobatga olmasak, bu borada qilinajak ishlar ko'p.

Mazkur maqolada Qashqadaryo o'zbek xalq shevalarini o'rgangan olimlarning bu hudud shevalari leksikasini o'rganish bo'yicha amalga oshirgan tadqiqotlari doirasida nashr etilgan ishlar, lug'atlar har tomonlama tahlil qilindi.

## **2. Tahlil Metodologiyasi**

Maqolaga o'zbek tilidagi o'zbek shevashunoslari, xususan, Qashqadaryo shevalarini o'rgangan olimlarning dissertatsiyalari, kitoblari va monografiyalaridagi shevalarni o'rganish bo'yicha nazariy fikrlari va amaliy materiallari asos qilib olindi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati hududlari shevalarini o'rgangan olimlarning bu hududdagi shevalarni xalq so'zlashuv nutqidan yozib olganligi va yozma yodgorliklardagi so'zlar bilan tarixan qiyoslanganligi, ularning fonetik, morfologik xususiyatlarining o'rganilishi, taraqqiyot manbalari va etimologik jihatdan qanday tahlil va tasnif etilganligi yoritilgan. Mavjud tadqiqotlar va ularga ilova qilingan lug'atlardagi so'zlearning miqdoriy ko'rsatkichi aniq faktlar asosida o'zaro tarixiy-qiyosiy o'rganilgan.

## **3. Tahlil va Natijalar**

Qashqadaryo xalq shevalar leksikasining o'rganilishi tarixini shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin: 1. Qashqadaryo viloyati shevalarini o'rganilish tarixinining umumiyl holati va sharhi. 2. Yuqori Qashqadaryo shevalarini o'rganilish tarixi. 3. Quyi Qashqadaryo shevalarining o'rganilish tarixi

1. Qashqadaryo viloyati shevalarini o'rganilishi holatini umumlashtirib aytish mumkinki, bu sohani tadqiq va tahlil etishda, shevalar lug'atlarini tuzishda quyidagi tilshunos-shevashunoslarning xizmatlari tahsinga sazovor. Bu yo'nalihsda YE. D. Polivanov, B. Jo'rayev, N. Mirzayev, T. Qudratov, Q. Xurramov, X. Jabborov, E. Jabborov N. Shoimova va boshqalarining tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo o'zbek xalq shevalarini birinchilardan bo'lib, har tomonlama sinchiklab o'rgangan olim professor YE. D. Polivanovdir. U 1920-26-yillar davomida Qarshi, Samarqand, Toshkent kabi shahar shevalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borib, juda qimmatli asarlar yozdi. U Qashqadaryo xalq shevalaridan Qarshi shevasini ilk marta o'rgangan va bu viloyat shevalarini o'rganishni boshlab bergan shevashunosdir. Uning 1928 yilda nashr etilgan Qarshi shevasi bo'yicha *Obraztsi nesingarmonisticheskix (iranizovannix) govorov uzbekskogo yazika. Karshinskiy govor // Qarshi shevasi. O'zbek tili nosingarmonizmli (eronlashgan) shevalaridan namunalar* (Polivanov, 1928, s. 92-96) maqolasi fikrimizning dalilidir. Uning 1933 yilda bosilib chiqqan *O'zbek dialektologiyasi* va *o'zbek adabiy tili* degan asarida o'zbek shevalarining turli –tuman ekanligi alohida qayd etilgan (Jo'rayev, 1963, s. 17-18).

O'zbekistonning Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari aholisining nutqi xalqona so'zlarga boy. Hududning tabiiy muhiti, ishlab chiqarish va hayot tarzi, etnik tarkibi shevaviy, qadimiy so'zlarning xilma-xil namunalarini saqlab qolishga, yangilarini yaratishga asos bo'lgan. Xalq ijodining ko'pgina turlari saqlangan. T. Nafasov joy nomlarini yozib olish jarayonida xalq nutqi va ijodining bir necha turlariga oid dalillar to'plagan. 15 mingga yaqin xalq so'zlarini yozib olgan. Alla va Kelinoy qo'shiqlarini to'plab kitob holida nashr qildi. Xalq maqollari, afsona va rivoyatlarini, xususan, kelinsalomlar va topishmoqlarni, xalq udumlarini toponimik rivoyatlarni yozib olgan.

Ma'lumki, har qanday mahalliy sheva, ma'lum bir hudud aholisi tilidagi so'z va qo'shimchalardan yaraladi. Ularning kashfiyotchisi esa o'sha hududda yashovchi xalqdir. Shevashunos, eng avvalo, shevadagi so'z yaralgan hududni va uning yaratuvchilari kimlar ekanligini aniqlab so'ngra tadqiqot olib borishi zarur. T. Nafasov – ana shunday saviyadagi olim. U toponimlarni tadqiqi jarayonida vohamiz shevalarini o'rgandi. Uning isboti – olimning *Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari lug'ati*dir. Har qanday shevaga xos so'zda uni yaratgan xalq shevasining hidi va ufori bor. Bu hududni anglay bilish va ajrata olish lozim.

Xullas, Ozbekistan respublikasi viloyatlari orasida Qashqadaryo viloyatining shevaga xos xalq so'zları ancha yaxshi o'rganilgan. Ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va salmoqli lug'atlar yaratilgan. Qashqadaryo viloyati shevalarining dialektal lug'atlaridek lug'atlar Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo oblastlaridagi shevalar bo'yicha tuzilmaganligini mutaxassislar yaxshi bilishadi.

2. Yuqori Qashqadaryo xalq shevalari leksikasining o'rganilishi bo'yicha salmoqli tadqiqotlar olib borgan zahmatkash olimlardan biri shevashunos Bolta Jo'rayevdir. Uning *Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari leksikasi//O'zbek shevalari leksikasi* (1966), *Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari* (1969), *O'zbek adabiy tili va o'zbek dialektlari* (1963) kitoblari, *Shaxrisabzkiy govor uzbekskogo yazika* (1959), A Jo'rayevning *Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari morfologiyasining areal tadqiq etish* (Jo'rayev 1986). Dissertatsiyalarini alohida qayd etish mumkin. Ayniqsa, A. Jo'rayevning yuqorida qayd etilgan tadqiqoti tahsinga sazovardir. Tadqiqotda olim yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari morfologiyasining areal tadqiqini Shaxrisabz, Kitob, Chiroqchi, Yakkabog' tumanlari misolida amalgan oshirgan. Unda mazkur tumanlardagi shevalarning so'z turkumlari, kelishiklar, shaxs-son qo'shimchalarining qo'llanishidagi o'xshash va farqli jihatlarini ilmiy tahlil qilgan.

O'zbek shevashunoslarning zahmatkash va sinchkov shevashunosi A. Ishayev e'tirof etishicha, "bu o'rinda shu faktni faxr bilan qayd etish lozimki, o'zbek dialektologiyasida Yuqori Qashqadaryo shevalarining o'rganilishi, tadqiq etilishi va lug'atlarining tuzilishida B. Jo'rayevning xizmatlari benihoya katta. U bu region shevalari bo'yicha faktik materiallarni

sinchkov tadqiqotchi sifatida qunt bilan to‘plagan, ularni benuqson transkripsiyada yozib olgan. B. Jo‘rayev Yuqori Qashqadaryo shevalarining “... faqat o‘ziga xos so‘z boyligini birmuncha qamrab oladigan qilib yaxlit lug‘at tuzish ishini keyinroq amalga oshirmoqchimiz”, -degan edi. Umuman, bu zahmatkash olimning *O‘zbek shevalari leksikasi* (1966) to‘plamida hamda so‘ngi monografiyasida (1969) nashr etilgan lug‘atlari bir-birini takrorlamaydi, aksincha, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Shunga ko‘ra, ikkala lug‘at ham o‘zbek shevalarining katta hajmdagi dialektal lug‘atlarini tuzishda eng asosiy manbalar sifatida xizmat qiladi, bunga shak-shubha yo‘q” (Ishayev, 1990, s. 62-64).

A. Ishayevning *O‘zbek dialektal leksikografiyasi* (1990) kitobida B. Jo‘rayevning ilmiy ishlari misollar asosida keng va atroficha o‘rganilgan va tahlil etilgan. Uning lug‘ati leksikografik talablarga javob berarli darajada tuzilganligi va bosh so‘zlarning qariyb barchasi misollar bilan ta‘minlanganligi, lug‘atning ilmiy jihatdan yaxshi fazilati shundaki, unda kelib chiqishiga ko‘ra boshqa tillarga oid bosh so‘zlarning deyarli barchasiga etimologik qaydlar berilganligi, ularning etimologik jihatdan qaysi tilga (tojik, fors-tojik, arab kabi tillarga) taalluqli ekanligi aniq ko‘rsatilgan: əzzə (ar. arabcha shakli yozilgan) ariza... (183). jəvrənnən (ar....) nohaqdan, gunohsiz (2 misol berilgan - 207). pətərət (ar...) vayrona (misol berilgan - 241). bəyimjon (toj. bodimchon) baqlajon. Bolg‘undor (f-t. bolog‘undor) taxmon (misol berilgan - 191). B. Jo‘rayev Yuqori Qashqadaryo shevalaridagi ayrim so‘zlarning kelib chiqishi jihatdan arab, fors-tojik tillariga oidligini qayd etgan (Jo‘rayev B., 1966, 182-292): əddisər (fors-tojik az du sar) bo‘lsa-bo‘lmasa, bari bir, albatta.... əzzə (ar...) ariza....əvg‘a (toj.ag‘ba) tog‘ cho‘qqisidan oshib o‘tiladigan qatnov joy, dovon... (183). qas (toj. qars) belbog‘.... (280) (Ishayev, 1990, s. 12).

B. Jo‘rayev *Qashqadaryo o‘zbek shevalari leksikasi* (O‘SHL, 1966) mavzuidagi maqolasiga ilova etilgan lug‘atda dallollar va qassoblarning “sirli” nutqidagi ba’zi so‘zlarni qayd etgan. Masalan: **әре-бир; бийсэз-икки; ғре-уч; гәпә-түрт, нимсәр-беш, кәпәре-олти; кәбийсэз-етти; бийсәм-саккиз; әрикәм-түккүз; сәре-үн** (Jo‘rayev, 1966, s. 186).

B. Jo‘rayevning *Yuqori Qashqadaryo shevalari* monografiyasida (1969) o‘sma regiondagagi mavjud shevalar guruhi bo‘yicha tekstlar berilgan: qipchoq shevalari (31-72); oraliq shevalar (83-104); shahar tip shevalar (112-123). Ushbu monografiyada tekstlarning ko‘p va xilma-xil bo‘lishi, tekstlardagi shevalarga xos xususiyatlarning aniq va mufassal izohlanganligi alohida diqqatga sazovor.

Umuman olganda, B. Jo‘rayevning ushbu lug‘ati boshqa dialektologlarimizning asarlarida qayd etilmagan ko‘pgina so‘zlarning mavjudligi, hajm jihatdan kattaligi (1400 so‘z), lug‘at tuzish prinsiplariga rioya etilganligi, reyestr so‘zlarning aksariyati misollar bilan ta‘minlanganligiga ko‘ra umumo ‘zbek shevalari katta dialektal lug‘atlar uchun qimmatli manbadir.

Yuqori Qashqadaryoning Shahrisabz, Yakkabog‘, Chiroqchi, Qamashi tumanlari shevalari materiallari asosida tadqiqotchi T. Qudratov *O‘zbek tilining oralig shevalari* mavzudagi (T. Qudratov, KD., (1968) nomzodlik dissertasiyasini himoya qilgan. Ishda shevalarning fonetik, morfologik xususiyatlari yoritilgan. Ilova tarzida ba’zi leksik xususiyatlar haqida ma’lumotlar hamda qisqacha lug‘at berilgan (AKD., 1968, s. 4; Ishayev, 1990, s. 55). Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, Yuqori Qashqadaryo shevalariga nisbatan Quyi Qashqadaryo shevalari bo‘yicha lug‘atlar kamroq tuzilgan

3. Quyi Qashqadaryo shevalarining o‘rganilishida S. Ibrohimov, A. SHermatov, D. Abdurahmonov, T. Nafasovlarning xizmatlarini alohida qayd etish zarur.

Quyi Qashqadaryo shevalarining o‘rganilishida A’zam SHermatovning xizmatlari katta. Muallifning *Qarshi shevasida kelishik va egalik qo‘shimchalari* (1962), “*Qarshi shevasi leksikasidan namunalar*” (1961), Qashqadaryo oblastidagi o‘zbek xalq shevalari atlasi (1979), Узбекские народные говоры Кашкадарьинской области (1978) kabi tadqiqotlari fikrimizning dalilidir.

A. Ishayevning ma'lumoticha, Qarshi shevasining (A.Shermatov, AKD., 1960) fonetik, morfologik xususiyatlari nisbatan leksik xususiyatlari juda kam darajada o'rganilgan (AKD., 31-32). Lug'at berilmagan. Leksikaga oid qismida alvon'-beshik; ɔllon-pes; arrabur-jodu kabi xarakterli dialektizmlar mavjud.

A. Shermatovning *Qarshi shevasi leksikasidan namunalar O'zbek dialektologiyasidan materiallar (O'DM)*, 2-kitob. Toshkent, 1961) maqolasida (184-191- betlar) 200 ga yaqin so'z lug'ati berilgan. Lug'atda alvонch — bola belanchagi; be-buburg' — shijoatsiz; djɔyposh — so'zana, palak; oytt//ɔyt' (< oy to'ti) - xola; tota — buvi, momo kabi anchagina so'zlar bop.

Umuman, Quyi Qashqadaryo shevalari bo'yicha A. Shermatov, S. Ibrohimov, D. Abdurahmonovlarning katta va kichik hajmdagi lug'atlari e'lon qilingan. Ularning turli xil to'plamlarda chop etilgan ba'zi maqolalarda xilma-xil shevalarga oid kichik lug'atlar anchaginadir. Лугатларнинг барчаси хақида фикр ўртиб о'tirmay, ахборот тарзидаги айимларининг номини санаб ко'rsatamiz.

Tadqiqotchi X. Jabborovning aniqlashicha, Qashqadaryo viloyati shevalari bo'yicha tuzilgan lug'atlarda birgina dehqonchilik sohasiga oid shevaga xos so'zlar quyidagicha berilgan: S. Ibrohimovning *O'zbek tilining Beshkent rayon shevalari yuzasidan kuzatishlar* nomli maqolasida 125 ta so'zdan 18 tasi, D. Abdurahmonovning *Beshkent rayon shevalari leksikasidan materiallar* nomli ishida berilgan kichik lug'atda 80 so'zdan 18 tasi, B. Jo'rayevning *Yuqori Qashqadaryo shevalari leksikasi* (1969) kitobi ilovasidagi 1100 ta so'z bo'lib, shundan 75 tasi, N. Shoimovaning *Qashqadaryo o'zbek qipchoq shevalari leksikasi* kitobida 257 ta so'zdan 18 tasi, A. Shermatovning *Qashqadaryo viloyatining o'zbek xalq shevalari* kitobidagi 197 ta so'zdan 8 tso'z va birikma terminlardan 66 tasi dehqonchilikka doir shevaga xos so'zlarini tashkil etadi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyati shevalari bo'yicha nashr etilgan kitob, tuzilgan lug'at va maqolalardagi so'zlarning miqdoriy ko'rsatkichini aniq tasavvur qilish uchun quyidagi jadvalga e'tibor qaratamiz:

Muallifning familiyasi, ismi	Asar, lug'atlar, maqola nomlari	Nashr yili	So'zlar miqdori
Ibrohimov S	O'zbek tilining Beshkent rayon shevalari yuzasidan kuzatishlar	1957	125
Shermatov A., Ishayev A	O'zbek shevalari leksikasidan materiallar.	1964	600
Jo'rayev B	Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari leksikasi	1966	1400
Jo'rayev B	Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari	1969	1100
Abdurahmonov D	Beshkent rayon shevalari leksikasidan materiallar	1961	80
Mirzayev N	O'zbek etnografizmlarining izohli lug'ati.	1991	700
Nafasov T	Qashqadaryo o'zbek xalq so'zları lug'ati. I jild	2011	8000
Jabborov X	Dehqonchilik so'zlarining qisqacha izohli lug'ati	2017	3063

Shoimova N	«Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalari leksikasi»	2000	257
Jabborov E	O‘zbek xalq o‘yinlari leksikasi (diss.si)	1998	780
JAMI:			16 007

## Xulosa va Takliflar

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan 16007 ta so‘zlarda takroran qo‘llanishlar uchraydi. Ularni jamlab, bir-biriga taqqoslab, takrorlarini ajratib olib lug‘at tuzish uchun materiallar yetarli. Mazkur materiallar tahlil etilsa, *Qashqadaryo o‘zbek xalq shevalari lug‘ati*’ning miqdori aniq bo‘ladi. Demak, lug‘at tuzish uchun tayyor manba bor. Biz dialektologlar oldida turgan eng dolzARB vazifa shuki, ularning mukammal ishlangan dialektal lug‘atlar tuzish prinsiplari asosida, hozirgi leksikografik talablarga to‘la-to‘kis javob beradigan Qashqadaryo viloyati shevalarining katta hajmdagi, fundamental lug‘atlarini tuzishdan iborat. Bugungi kunda bunday lug‘atlarni yaratish davr talabidir.

## Adabiyotlar

- Djurayev (1964). *Shaxrisabzkiy gorov uzbekskogo yazika*. Fan.
- Enazarov, T. (2008). *SHevashunosligimiz haqida o‘ylar, Ayyub G‘ulomov va o‘zbek tilshunosligi masalalari*. Toshkent.
- Enazarov, T. (2021). *O‘zbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot (nomli o‘quv qo‘llanma)*. Mahalla va Oila.
- Jabborov, X. (2011). *O‘zbek tilining dehqonchilik leksikasi*. Fan.
- Jabborov, X. (2016). *Dehqonchilik so‘zlarining qisqacha izohli lug‘ati*. Nasaf.
- Jabborov, X. (2018). *O‘zbek shevalari izohli lug‘atini tuzish - davr talabi, O‘zbek dialektologiyasining dolzARB muammolari mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari*. Toshkent.
- Jo‘rayev, A. (1986). *Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari morfologiyasining areal tadqiq etish*. AKD.
- Jo‘rayev, B. (1963). *O‘zbek adabiy tili va o‘zbek dialektlari*. Qizil O‘zbekiston, Pravda Vostoka va O‘zbekiston Surx.
- Marqayev, K. (2006). *O‘zbek tili etnonimlarining lisoniy tahlili* [Nomzodlik dissertatsiyasi]. Toshkent.
- Mirzayev N. (1971). *Etnograficheskaya lekika Uzbeckogo yazika (na materili uzbekskix gorovov Kashkadarinskoy oblasti)*. Nauka.
- Mirzayev, N. (1991). *O‘zbek etnografizmlarining izohli lug‘ati*. Fan.
- Nafasov, T. (1985). *Janubiy O‘zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi*.
- Nafasov, T. (1988). *O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati*. O‘qituvchi.
- Nafasov, T. (1993). *Nosirov Sh. O‘zbek dialektal leksikografiyası, O‘zbek tili va adabyoti*.
- Nafasov, T. (1994). *O‘zbek nomnomasi*. Nasaf.
- Nafasov, T. (2011). *Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari*. Muharrir.
- Polivanov, Y. D. (1928). *Obrazzi nesingarmonisticheskix (iranizovannix) gorovov uzbekskogo yazika. Karshinskiy gorov*. Dokladi AN SSSR. – Leningrad: 1928, №5 str. 92-96.
- Umarov, E. (2011). *Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari lug‘ati, O‘zbek tili va adabyoti*.
- Usmonov, K. (2008). *SHevalar bag‘rida tug‘ilgan nomlar tadqiqchisi*. Nomshunos olim.
- Xurramov, K. (1981). *Uzbekskiye narolnqe geograficheskiye termini, oboznachayushiyi relyef Yujnogo Uzbekistana*. Nauka.

### **Extended Summary**

The article presents information on the history of studying the vocabulary of folk dialects of the Kashkadarya region of the Republic of Uzbekistan based on scientific sources. The article discusses scientific research conducted by researchers studying the vocabulary of folk dialects of Kashkadarya, on the dialects of this region, the content and essence of the work they have done, the scientific and practical significance of additional dictionaries created within the framework of the study, whether they were published or not, as well as further work in this direction, i.e. problems and ways to solve them. In particular, the article presents researchers Bolta Juraev, Aziz Juraev, Asham Shermatov, Tura Nafasov, K. It describes how dialectologists such as Usmonov, Nurkul Mirzaev, Khodjamurod Jabborov, Nargiza Shoimova recorded the dialects of the Kashkadarya region from colloquial speech and historically compared them with words in written monuments, studied their phonetic and morphological characteristics, studied the sources of their development and etymology. It is stated that one of the urgent tasks is the creation of a large-scale "Dictionary of Uzbek folk dialects of the Kashkadarya region" based on existing research and large and small dictionaries that include various dialects.

The theoretical and practical ideas set out in the work of A. Ishaev "Uzbek Dialectal Lexicography" (1990) formed the basis. In this work, the author examines all practical issues of dialect lexicography, such as recording words from dialects, visual explanation of their meanings, compiling a dictionary, selecting and organizing words for a dictionary, the volume and meanings of dialect words in a dictionary (Nafasov and Nosirov, 1993, p. 69). In Uzbek linguistics, much work remains to be done in this direction, not counting the work of A. Ishaev, who studied the folk dialects of Kashkadarya, entitled "Uzbek Dialectal Lexicography". As part of the study of the vocabulary of the dialects of this region, a comprehensive analysis of published works and dictionaries of scientists studying the Uzbek dialects of Kashkadarya was conducted.

The author of the work "Uzbek Dialectal Lexicography" (1990) A. Ishaev presented the research conducted on the Uzbek dialects of our republic, in particular the Kashkadarya region, dialect lexicographic materials, types of dictionaries presented as appendices to the study, achievements and shortcomings in the dictionaries, and also gave recommendations for eliminating errors and shortcomings in this area. However, apart from this work, no other studies on linguistics and dialect dictionaries were conducted by researchers of the dialects of Kashkadarya. Therefore, a serious study of the research of scientists who studied the Kashkadarya dialects and the study of the linguistic heritage of this region are just beginning. According to the author of the article, kh. Under the title "Materials from the vocabulary of the Beshkent region", 18 of 80 words, in the appendix to the book "Lexicon Lexicon B. Jo'rayev", in the book "Lexicon from Kashkadarya", of which 75, in the book "Lexicon from Kashkadarya" k dialects in the Kashkadarya region "A. Shermatova, 197 words Of the 8 words and complex terms, 66 are words specific to the dialect associated with agriculture.

From the above data it follows that the existing 16,007 words are used repeatedly. There is enough material to collect them, compare them with each other and identify repetitions to create a dictionary. If you analyze these materials, the volume of the "Dictionary of Kashkadarya Uzbek Folk Dialects" will become clear.

So, there is a ready-made source for compiling a dictionary. The most urgent task facing us, dialectologists, is to compile large-scale, fundamental dictionaries of the dialects of the Kashkadarya region, based on the principles of compiling dialect dictionaries that they have well developed and that fully meet modern lexicographic requirements. Today, the creation of such dictionaries is a necessity.

